

UCH AVLODLAR UCHRASHUVI



UCH AVLODLAR UCHRASHUVI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvar kunidagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-92 -son Karori ijrosini ta'minlash maqsadida, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi, Termiz harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi mintaqaviy jamoatchilik kengashi viloyat bo'limi va a'zolari, Yoshlar ittifoqi viloyat bo'limi, Termiz shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlari, Yoshlar ishlari agentligi vakillari, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, Mudofaa vazirligi faxriylari, Nuroniylar, harbiy qism harbiy xizmatchilari, viloyat favqulotda vaziyat boshqarmasi harbiy xizmatchilari, viloyat veteran jangchi va nogironlar kengashi a'zolari, Sa'nat maktabi yoshlari, Termiz davlat universiteti talabalari va maktab yoshlari ishtirokida "Milliy armiyamiz yoshlar nigohida" shiori ostida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamda "Uch avlodlar uchrashuvi" madaniy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda zamonaviy harbiy qurollar ko'rgazmalari hamda harbiy qism faxriy qorovul vzvodi va qo'l jangi guruhlarining jangovor chiqishlari ko'rinishlari xamda xavaskor

yoshlarimiz tomonidan kuy-qi'oshlar namoyish etildi. Ushbu uchrashuvda Termiz tuman madaniyat bo'limining baxshichilik to'garagi rahbari Xamidov Bekzod ham ishtirok etib yig'ilganlarga eng sara termalarni ting etdi.

